



Nilufar ABDURAXMONOVA
O'zbekiston Milliy universiteti professori
E-mail: nilufarabdurakhmonova4@gmail.com
Maftuna ABDUNAZAROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.n N.Azizova taqrizi asosida

PRAGMALINGVISTIKA VA PRAGMALINGVISTIK TAHLIL

Annotation

This article examines the theoretical foundations of pragmalinguistics, its role in the communicative process, and the pragmatic factors influencing the formation of utterance meaning. The methodological principles of pragmalinguistic analysis, the communicative relations between the addresser and the addressee, as well as the functions of context, presupposition, and illocutionary intent in speech production are analyzed. The study highlights the significance of the pragmalinguistic approach in modern linguistics and its close interrelation with discourse analysis.

Key words: Pragmalinguistics, pragmalinguistic analysis, communicative process, context, illocutionary intent, presupposition, discourse.

ПРАГМАЛИНГВИСТИКА И ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы прагмалингвистики, её роль в коммуникативном процессе и прагматические факторы, влияющие на формирование содержания высказывания. Кроме того, анализируются методологические принципы прагмалингвистического анализа, коммуникативные отношения между адресантом и адресатом, контекст, пресуппозиция и иллокутивные цели, определяющие функциональную организацию речи. В исследовании раскрывается значимость прагмалингвистического подхода в современной лингвистике и его тесная связь с дискурсивным анализом.

Ключевые слова: Прагмалингвистика, прагмалингвистический анализ, коммуникативный процесс, контекст, иллокутивная цель, пресуппозиция, дискурс.

PRAGMALINGVISTIKA VA PRAGMALINGVISTIK TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqolada pragmalingvistikaning nazariy asoslari, uning kommunikativ jarayondagi o'rni hamda nutq mazmunining shakllanishiga ta'sir etuvchi pragmatik omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, pragmalingvistik tahlilning metodologik tamoyillari, adresant va adresat o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar, kontekst, presuppozitsiya va illokutiv maqsadlarning nutq jarayonidagi funksional roli ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda pragmalingvistik yondashuvning zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati yoritiladi va uning diskurs tahlili bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Pragmalingvistika, pragmalingvistik tahlil, kommunikativ jarayon, kontekst, illokutiv maqsad, presuppozitsiya, diskurs.

Tilshunoslikda presuppozitsiya tushunchasi ma'lum bir ifoda orqali ilgari surilgan, lekin ochiq aytilmagan axborotga ishora qiladi. Pragmatik presuppozitsiya esa kontekstual holatlarga bog'liq bo'lib, dialog davomida nutq ishtirokchilari o'rtasida mavjud bo'lgan umumiy bilimlar bazasiga tayangan holda shakllanadi.

Kirish. Dunyo tilshunosligida snutqiy faoliyat va uning muvaffaqiyatli kechishi, nutqiy etiket yoki nutqning ijtimoiy xoslanishi, baho munosabatini ifodalovchi so'z va vositalar, kommunikativ maqsad va uning nutqda voqelanishi, deysis, diskurs, nutqiy aktlar nazariyasi, nutqning kontekst bilan aloqador jihatlari va boshqa shu kabi qator masalalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar salmoqli o'rin egalladi.

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini ularning nutq jarayonida, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi real kommunikativ vaziyatdagi funksional xususiyatlar bilan birgalikda o'rganish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Ana shu ehtiyoj asosida shakllangan pragmalingvistika tilning amaliy, kommunikativ va kontekstual jihatlari tadqiq etuvchi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Pragmalingvistika nutq jarayonida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi

munosabat, maqsad, niyat, presuppozitsiya, implikatura, nutq aktlari kabi hodisalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan.

Mazkur maqolada pragmalingvistikaning asosiy tadqiqot predmeti, obyekt hamda zamonaviy yo'nalishlari tizimli ravishda yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pragmatika tarixi. "Pragmatika" atamasi (yunoncha "faoliyat", "harakat" ma'nosida) semiotika – belgilarning umumiy nazariyasi asoschilaridan biri bo'lgan Ch.Morris tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan [1]. Garchi uning ildizlari ritorika va stilistikaning dastlabki klassik an'analriga, Immanuel Kantning pragmatikani empirik va maqsadli tushunchasiga hamda uning amaliy tabiatini ta'kidlagan Uilyam Jeymsga borib taqalsa-da, zamonaviy pragmatika nisbatan yangi fan hisoblanadi. Uning insemiotika bilan bog'liq mustaqil tadqiqot sohasi sifatida yuzaga kelishi XX asr boshlarida Ch. Morris, R. Carnap va C.S. Peirce tomonidan amalga oshirildi. Sintaksis, semantika va pragmatika o'rtasidagi klassik bo'linish Morrisga borib taqaladi, u o'zining belgilar fanida semiozning uchta alohida "o'lchovini" ajratib ko'rsatgan:

Belgilarning belgilar qo'llaniladigan obyektlarga munosabatini o'rganish mumkin. Bu munosabat semiozisning semantik o'lchovi hisoblanib, bu o'lchovning o'rganilishi semantika deb ataladi. Yoki, o'rganish predmeti belgilarning talqin qiluvchilarga munosabati bo'lishi mumkin. Bu munosabat semiozisning pragmatik o'lchovi hisoblanib, bu o'lchovning o'rganilishi pragmatika deb ataladi. Belgilarning muhim munosabatlaridan biri belgilarning bir-biriga formal

munosabatlari semiozisning sintaktik o'lchovi deb ataladi va bu o'lchovning o'rganilishi sintaktika hisoblanadi [1]. Sintaksis belgilarning boshqa belgilarga munosabatini, semantika belgilar va obyektlar o'rtasidagi munosabatni, pragmatika esa belgilar va ularning tarjimonlari o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Albatta, semantika va pragmatika o'rtasidagi chegara qayerda aniq belgilanishi haqida turlicha fikrlar bo'lgan va hozir ham mavjud.



1-rasm. Ch. Morris semiozisning belgilari.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot integratsiyalashgan pragmalingsvistik modelga tayandi. Model quyidagi nazariy komponentlarni birlashtirdi:

- nutq aktlari nazariyasi (Austin, 1962)[2]; Searle, 1969)[3]

- Grays implikaturasi (Grice, 1975)[4]

-presuppozitsiya nazariyasi (Stalnaker, 1974); Levinson, 1983)[5]

Tahlil kontekstual-diskursiv yondashuv asosida olib borildi.

Tahlil va natijalar. Pragmalingsvistika - til va harakat o'rtasidagi munosabatni, shuningdek, tilning dunyoni tushunish va idrok etishga ta'sirini o'rganadigan ilmiy fan[1]. Lingvistik pragmatika tilni "o'zida va o'zi uchun" emas, balki inson o'z faoliyatida foydalanadigan vosita sifatida o'rganadigan fandır. Bugungi kunda pragmatika fanlararo soha bo'lib, unda deyarli barcha lingvistik, ko'plab mantiqiy-falsafiy, sotsiologik, psixologik, etnografik va ba'zi kibernetik (sun'iy intellekti yaratish bilan bog'liq) yo'nalishlar qamrab olingan. Pragmatika umumiy nazariyasining empirik vazifalariga nutqiy aktlarni hosil qilish, tushunish, eslab qolishning kognitiv modelini, shuningdek, kommunikativ o'zaro ta'sir va tildan muayyan ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda foydalanish modelini ishlab chiqish kiradi.

Pragmalingsvistikada bir qator asosiy atamalar va tushunchalar mavjud bo'lib, ular tilni muloqot doirasida o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Pragmalingsvistikada qo'llaniladigan asosiy atamalardan ba'zilari quyidagilar:

Nutq akti (Speech Act) – bu ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan muloqot me'yorlariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli nutqiy harakatdir [Rus tilining stilistik ensiklopedik lug'ati, 2010, 351-bet].

Nutqiy akt – ma'lumot uzatish, aloqa o'rnatish yoki tinglovchiga ta'sir ko'rsatish maqsadida muayyan fikrlar aytiluvchi muloqot jarayonidir. Bu atama tilshunoslik nazariyasiga XX asr oxirida ingliz-amerikalik faylasuf Jon

Ostin tomonidan kiritilgan, keyinchalik uning shogirdi Jon Serl tomonidan rivojlantirilgan va so'ngra amerikalik tilshunos Xaym Pursel tomonidan kengaytirilgan. Asosiy g'oya shundaki, nutqiy akt nafaqat o'zining ma'no jihatiga (so'zlarning lug'aviy ma'nosi), balki kontekst va so'zlovchining niyatlari bilan belgilanadigan vazifaviy maqsadga ham ega.

Nutqiy akt bir vaqtning o'zida uchta faza, daraja, aktdan iborat bo'lgan murakkab hosiladir: lokutiv, illokutiv, perlokutiv.

Lokutiv akt – talaffuz akti; muayyan til grammatikasi qoidalari asosida gap tuzish.

Illokutiv akt – lokutiv aktga maqsadga yo'nalganlik berish, kommunikativ maqsadni ifodalash.

Perlokutiv akt so'zning boshqa shaxsning fikri yoki harakatlariga ko'rsatadigan ta'sirini anglatadi. Perlokutiv akt ma'lum bir vaziyatga xos bo'lib, shu sababli faqat ma'lum bir iborani aytish orqali an'anaviy tarzda erishib bo'lmaydi. U ma'lum bir vaziyatda aytilgan ma'lum bir gapning keltirib chiqaradigan barcha ta'sirlarni, xoh ko'zda tutilgan bo'lsin, xoh ko'zda tutilmagan, ko'pincha noaniq bo'lgan ta'sirlarni o'z ichiga oladi.


Misol: - O'qisin, ko'proq o'qisin - imoniga foyda![16]

Nutqiy akt turi: Ironik directive

Illokutiv kuch: Yashirin istehzo

Lingvistik ko'rsatkich: buyruq mayli (-sin) parallel takror (buyruq shakli aslida tasdiq emas, kinoya).

Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalari til ko'nikmalari bilan bog'liq tarzda aks ettirgan pragmatik xususiyati bo'lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslanuvchi ko'rinishini anglatadi. Bunday tashqi ishora tilda moddiy ifodachisiga ega bo'lganda presuppozitsiya lingvistik xususiyat kasb etadi. Bu jihatdan qaraganda, lingvistik presuppozitsiyaning gapda lisoniy vositalar ishorasi asosida yashirin ifodalanuvchi axborot tarzida baholanishi asoslidir.



2-rasm:Presopozitsiya turlari

Presuppozitsiya sintaktik qoliplarning ma'no tomoni bilan uzviy bog'liq. V.V.Bogdanov[10] presuppozitsiyaning gap semantikasi aspekti ekanini ta'kidlaydi.

N.D.Arutyunova[7] ham presuppozitsiya "so'zlovchilarning umumiy bilish fondi", "ularning oldindan kelishuvi" sifatida

gap semantikasiga kirishini ko'rsatadi. Unig fikricha tema-presuppozitsiya, rema esa axborotdir.

Xulosa qilib aytganda, presuppozitsiya so'zlovchining tag bilimiga asoslangan, nutqiy tejamkorlik vata'sirchanlik kuchaytirishga hizmat qiluvchi pragmatic birlikdir.

Misol:

- Toshkentga!

- Toshkent deganlari anoyi shahar emas, apa...[16]

Presuppozitsiya: Toshkent haqida umumiy baho mavjud.

Lingvistik belgilar: "degani" konstruksiyasi, inkor shakli: emas

Tahlil: "Toshkent deganlari" iborasi umumiy ijtimoiy tasavvurni presuppozitsiya qiladi.

"Emas" orqali mavjud ijobiy taxmin inkor qilinadi.

Bu yerda ideologik presuppozitsiya mavjud: shahar = axloqiy xavf.

Tagma'no lingvistik pragmatikaning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Piching, kesatiq, kinoya tagma'no ko'rinishlari sifatida e'tirof etiladi.

Tagma'ning matndagi xususiyatlaridan biri, u oshkora verbal bayonga ega bo'lmaydi. Bunda tagma'noni aniqlash mantiqiy tahlil yordamida amalga oshiriladi. Yana bir xususiyati esa tagma'no ishorasidan so'ng yoki undan avval uning oshkora verbal bayoni beriladi. Shuningdek, tagma'noda nutq ishtirokchilaridan kimdir matndagi yashirin mazmundan bexabar bo'ladi yoki so'zlashuvchilar o'zlari nazarda tutgan fikrni ma'lum ichki pragmatik maqsad bilan tagma'no vositasida bayon qiladilar[15].

Misol: "Shu bola seniki bo'lardi, Sharofat..."[17]

O'tmishda Bolta Mardon va Sharofat o'rtasida munosabat bo'lgan.

"Bo'lardi" konstruksiyasi o'tmishdagi amalga oshmagan imkoniyatni anglatadi. Dialog ortida katta tarix va yashirin hissiy qatlam mavjud.

Deyksis (yunon tilidan. deixis birliklar (olmoshlar, ravishlar, fe'llar) gapni kommunikativ vaziyatga (masalan, men, sen, bu yerda, u yerda, hozir, bu) "bog'laydi" va ularni faqat kontekstda talqin qilish imkonini beradi[11].

Deyksisning asosiy turlari va deytik birliklar:

Shaxs (personal) deyksisi: Muloqot ishtirokchilarini ko'rsatadi.

Birliklar: kishilik va egalik olmoshlari (men, sen, biz, meniki, seniki, uniki).

Makon (lokal) deyksisi: Predmetlarning so'zlovchiga nisbatan joylashuvini ko'rsatadi.

Birliklar: ko'rsatish olmoshlari va o'rin ravishlari (bu, u, bu yerda, u yerda, bu yerda, u yoqda, bu yerda).

Vaqt (temporal) deyksisi: Muloqot paytiga nisbatan nutq vaqtini, o'tgan yoki kelajakni ko'rsatadi.

Birliklar: payt ravishlari (hozir, o'shanda, kecha, ertaga) va fe'l zamonlari.

Ijtimoiy deyksisi: Ishtirokchilarning ijtimoiy munosabatlari yoki mavqeini ko'rsatadi.

Birliklar: hurmat shakli, baholovchi komponentli olmoshlar.

Diskurs (matn) deyksisi: Matnning qismlarini ko'rsatadi.

Birliklari: yuqoridagi, keyingisi, bu[12].

Deytik birliklarning xususiyatlari:

Kontekstga bog'liqlik: Kim, qayerda va qachon gapirayotgani ko'rsatilmasa, deytiklarning ma'nosi tushunarsiz bo'ladi.

Egotsentrizm: Tizimning markazi har doim so'zlovchi ("men-shu yerdaman-hozir") bo'ladi.

Anafora: Deytik birliklar haqiqiy vaziyatga emas, balki yuqorida tilga olingan matn elementiga ishora qilib, anafora vazifasini bajarishi mumkin.

Deyksis universal kategoriya, ammo uni ifodalash usullari turli tillarda farq qiladi.

Misol: "Bu yerda bizning bir chaqalik qadrimiz yo'q ekan"[16].

"Bu yerda" - makon deyksisi

"Bizning" - shaxs deyksisi

Makon deyksisi orqali psixologik begonalashuv ifodalanadi.

Pragmatik to'siq - muloqot jarayonida ishtirokchilar o'rtasida nutqning maqsadi, konteksti, ijtimoiy roli yoki madaniy kutilmalari mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan tushunmovchilik holatidir. Bunda nutqiy birliklar grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, ularning kommunikativ niyati to'liq anglanmaydi yoki noto'g'ri talqin qilinadi.

Pragmatik to'siq va uning nazariy asoslari quyidagi ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topgan: H. P. Grice - Logic and Conversation (1975), J. L. Austin - How to Do Things with Words (1962), J. R. Searle - Speech Acts (1969), T. van Dijk - Discourse and Context (2008)

Pragmatik to'siqning sabablari: ijtimoiy mavqea tafovuti; madaniy farqlar; presuppozitsiyaning mos kelmasligi; implikaturaning noto'g'ri talqini; kinoya va tag ma'noni tushunmaslik; ruhiy yoki jismoniy holat;

Pragmatik to'siq dialogik diskursda konflikt, sukut, kinoya yoki keskinlik yuzaga kelishiga sabab bo'lib, personajlar o'rtasidagi ijtimoiy va psixologik masofani ochib beradi.

Misol: - Xudojnik-modelyer!

- Devor ag'nasa, ichkari ag'nasin[16].

Bu yerda avlodlar diskursi to'qnashadi. Kasb semantik maydoni har ikki tomon uchun turlicha.

Van Dijk [18] kontekst modeli bo'yicha bu - kognitiv mos kelmaslik.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqotda pragmatik lingvistik tilshunoslikdagi o'rni, pragmatik lingvistik tahlilning metodologik imkoniyatlari yoritildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ma'no nafaqat grammatik tuzilish orqali, balki nutqiy vaziyat, ijtimoiy kontekst va ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida ham shakllanadi. Nutqiy akt, presuppozitsiya, implikatura, deyksis, pragmatik to'siq kabi birliklar diskursda ma'no shakllanishining asosiy mexanizmlari sifatida namoyon bo'ldi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dialogik diskursni o'rganishda pragmatik lingvistik yondashuv ayniqsa samarali hisoblanadi. Bunday yondashuv til birliklari, kommunikativ maqsad va ijtimoiy munosabatlar ortidagi yashirin ma'no qatlamlarini aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun pragmatik lingvistik tahlil zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda nazariy va amaliy ahamiyatga ega usul sifatida baholanadi.

ADABIYOTLAR

- Morris, Charles Foundations of the Theory of Signs. In: Otto Neurath, Rudolf Carnap and Charles Morris (eds.). International Encyclopaedia of Unified Science. 77-138. Chicago: University of Chicago Press. 1938. - P 21-22.
- Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Oxford University Press.
- Searle, J. R. (1969). Speech acts: An essay in the philosophy of language. Cambridge University Press.
- Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), Syntax and semantics: Vol. 3. Speech acts (pp. 41-58). Academic Press.
- Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.

6. Кравченко Н.К. Пресуппозиция, импликация, импликатура, экспликатура: к проблеме разграничения терминов // Мова і культура. – М., 2012. – Вип. 15. Т.1. – С. 227.
7. Арутюнова Н. Д. Понятие презумпции в лингвистической семантике // Семантика и информатика. – М., 1977. № 8. – С. 85.
8. Abduraxmonova, N.Z. 2018. Inglizcha matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta'minoti (sodda gaplar misolida): f.f.f.d. dissertatsiyasi, avtoreferat. – Toshkent.
9. Гальперин И.Р. К проблеме зависимости предложения от контекста. - Вопросы языкознания, 1977, III I, – С.48.
10. Богданов В.В. Семантико-синтаксическая организация предложения. –Л., 1977. – С. 135-138.
11. Лингвистический энциклопедический словарь. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. - 709 с.: ил.
12. Крылов С.А.К типологии дейксиса // Лингвистические исследования. — Ч. 1. — М., 1984.
13. Rahimov U. Lisoniy presuppozitsiya / A.G'ulom va o'zbek tilshunosligi: Ilmiy ishlar to'plami. – Toshkent, 2004.
14. Lakoff G. Pragmatics in natural logic. – Formal semantics of natural language. – Cambr., 1975, – P. 171.
15. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent.: Akademnashr, 2013. – B. 120.
16. A'zam, E. (2000). Piyoda. Toshkent: Sharq nashriyoti.
17. A'zam, E. (2003). Suv yoqalab. Toshkent: Sharq nashriyoti.
18. Van Dijk, T.A. Discourse as Structure and Process. 1997.